

TURLI YOSHDAGI BOLALAR GURUHIDA RIVOJLANTIRUVCHI TIL VA NUTQ MARKAZIDA PEDAGOGIK FAOLIYATNI LOYIHALASHTIRISH

D.Xomidova

*NamDU Maktabgacha
ta'lim metodikasi kafedrası
o'qituvchisi*

G. Anvarova

*NamDU Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi 3-kurs talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada MTTda maktabgacha yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi til va nutq faoliyat markazida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish va uning vazifalari, talablari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek markazda faoliyat olib borishda tarbiyachining faoliyati ham nazarda tutiladi.*

Kalit so'zlar: *rivojlanish markazlari, pedagogik jarayon, kognitiv, kommunikativ, eksperimental, ijodiy rivojlantirish. Integratsiya.*


Maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standartlari bola rivojlanishining beshta asosiy sohasini, jumladan, "Nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari" sohasini belgilab beradi. Ushbu talablar milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning parvarishi va ta'limi sifatini ta'minlab berishni, ularni tarbiyalash va rivojlantirishning samarali shakllari va metodlarini joriy etishni eng muhim vazifalar deb hisoblaydi.

Markazlardagi pedagogik faoliyatlarni har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi.

Turli yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi til va nutq markazida pedagogik faoliyatni loyihalashtirish va bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo'shilish imkoniyatini berishdir.

Kichkina bolalar - tashqi ta'sirlarsiz, aniq fikrlaydigan, qiziquvchan, kattalar





olamiga kirishga intiladigan shaxslar. Bu olamning kalitlaridan biri – savodxonlik. Savodxonlik eng muhim akademik ko‘nikma hisoblanadi, chunki bolalarning maktabdagi va undan keyingi hayotidagi muvaffaqiyati matnni ravon o‘qish va to‘liq tushunish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Tarbiyachining eng katta vazifalaridan biri kamroq so‘zlash va bolani ko‘proq gapirishga undash sanaladi. Pedagoglar kun davomida ahamiyatli voqealar haqida hikoya qilib berish orqali bolalarga tinglash va gapirishni o‘rganishda yordam beradi. O‘zaro munosabatlarning mazkur barcha ko‘rinishlari bolalarning so‘z boyligini oshiradi, shunday qilib, ular o‘qishni boshlaganida matnni tushunishi oson bo‘ladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachisining zimmasiga barcha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning nutq qobiliyatini rivojlantirish va to‘g‘rilash maqsadida standart va integratsiyalashgan umumiy ta‘limiy mashg‘ulotlarni loyihalash uchun guruhda rivojlantiruvchi o‘qish muhitini tashkillash vazifasi yuklatilgan. “Til va nutq” rivojlantirish markazida talimiy mashg‘ulotlar individual va 2–3 ta tarbiyalanuvchidan iborat kichik guruhlarda o‘tkaziladi.

“Til va nutq” markazining maqsadi – tarbiyalanuvchilarning nutq qobiliyatini takomillashtirish uchun rivojlantiruvchi muhitni optimal tashkil etishdan iborat. *“Til va nutq” markazining vazifalari:*

- * Fonematik eshitish qobiliyatini rivojlantirish (so‘z tarkibidagi fonema va tovushlarni farqlay olish).

- * Nutqiy nafas olishni rivojlantirish.

- * Ovozni idrok qilishni takomillashtirish.

- * Talaffuz motorikasini rivojlantirish.

- * To‘g‘ri talaffuz qilish ko‘nikmalarini mustahkamlash.

- * Tushunchalar va leksik-grammatik kategoriyalarni umumlashtiruvchi lug‘atni faollashtirish.

- * Monolog nutqni rivojlantirish.

- * O‘qish-yozishni o‘rgatishga tayyorlash.

- * Bolalar jamoasida nutqiy muloqot madaniyatini shakllantirish.

- * Hamdardlik tuyg‘usini tarbiyalash (qayg‘usiga sherik bo‘lish, qo‘llabquvvatlash istagi).

- * Guruhda do‘stona munosabatlarni mustahkamlash.


- * Jamoaviy ishlash uchun ijobiy motivatsiya hosil qilish

“Til va nutq” markazining olib boriladigan ta‘limiy faoliyatlarni loyihalashda rivojlanish sohalari bo‘yicha integratsiyasi ta‘minlanishi talab etiladi.

“Til va nutq” markazining rivojlanish sohalari bo‘yicha integratsiyasi:

Bolalar bilan nutq va savodxonlikni takomillashtirish ustida ishlashda





pedagoglar ularga ijtimoiy-hissiy, jismoniy va aqliy rivojlanishda, shuningdek, boshqa sohalarda (matematika, ilm-fan, texnologiya, ijodkorlik) asosiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Har bir markazning maqsadiga muvofiq haftaning boshida pedagogning tematik rejasiga binoan, materiallar tayyorlanadi va jihozlanadi. Rivojlantiruvchi til va nutq markazi didaktik o'yinlar, tematik mavzuli, katta va kichik formatdagi rasmlar, tasviriy materiallar, voqealar ketma-ketligini belgilash uchun rasm seriyalari, turli mezonlarga ko'ra guruhlash va boshqalar, bolalar kitoblari kutubxonasi, tematik albomlar, topishmoqlar albomlari, magnit harflar to'plami, "Rasmi Alifbo" kubiklari bilan jihozlanadi. Markazdagi bolalar faoliyati o'yin, mustaqil nutq, kognitiv, kommunikativ, kognitiv-tadqiqot, eksperimental, ijodiy, kommunikativ, mehnat, musiqiy va badiiy faoliyatlardan iborat bo'ladi.

Markazda tarbiyachining faoliyati quyidagilardan iborat bo'ladi: bolalarni tabiat, musiqa va ijod dunyosiga jalb qilish va bolani o'rgatish; mustaqil ravishda bilimlarni egallash, bilimga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishga, yangi bilimlarni olishga bo'lgan ehtiyoj, o'rganish va rag'batlantirish, shu bilan birga sub'ekt bo'lish; Bolalar bilan birga uyushgan tadbirlar tashkil etish; qiyinchiliklar yuzaga kelganda, bolaga beg'araz va o'z vaqtida og'zaki va amaliy yordam ko'rsatish; bolaning shaxsiy qiziqishini rag'batlantirish.

Bolaning rivojlanishi faqat o'quv faoliyatida emas, balki o'yin tarzida ham amalga oshiriladi. Markazlardagi bolalarning o'yin va kognitiv faoliyati davomida tarbiyachi bolalarning ishini kuzatib boradi, tavsiya etilgan materiallar bolalar uchun qanchalik qiziq, qulay va xavfsiz ekanligiga e'tibor qaratadi.

Nutq faoliyati - odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga uzatish yoki kommunikatsiya o'rnatish, o'z harakatlarini rejalashtirishda tildan foydalanish jarayonidir. Nutq faoliyatining yo'nalishi har xil bo'lishi mumkin: yangi informatsiyani berish, yangi bilimlarni berish, aqliy masalani yechish.

Til aloqa vositasi yoki quroli, nutq faoliyati esa aloqa jarayonining o'zidir.

Psixologiya nutqni o'rganar ekan, har turli sharoitlarda, har xil muammoli vaziyatlarda tildan foydalanish xususiyatlarini aniqlaydi, inson hatti-harakatini rejalashtirishda tilning rolini o'rganadi, bolalarda aloqa (kommunikatsiya) jaryonining tarkib topish yo'llarini va shu kabilarni tahlil qiladi.

Barcha yosh guruhlarda mashg'ulotlarni maqsadga yo'naltirilgan holda topishmoq aytishdan boshlash mumkin. Masalan: «Boshi taroq, dumi o'roq». Bu topishmoq orqali xo'rozning boshqa qushlardan chiroyli tojisi, dumini betakrorligi kabi detal shakllari ajratiladi. Ba'zida kichik she'rlarni yoki asarlardan parcha o'qish



ham mumkin. Agar kerak bo'lsa, asarni o'qish bilan birga og'zaki obrazga qo'shib natura yoki predmetning tasviri bolalarga ko'rsatiladi.

Tarbiyachining ko'rsatmalari barcha ko'rgazmali usullarni o'z ichiga oladi, hamda o'zi mustaqil o'rgatish usuli sifatida xizmat qiladi. Bu bolalarning yoshi va topishmoqlariga bog'liqdir. Kichik yoshdagi guruh bolalari uchun og'zaki ko'rsatmalar kamdan-kam beriladi. Bolalarning tasvirlash malakalari yetarli bo'lmay, sezgi analizatorining ishtirokisiz tarbiyachining ko'rsatmasini tushunmaydilar (ko'rish, eshitish, qo'l, tam bilish sezgilari). Agarda bolalar mustahkam ko'nikmaga ega bo'lsalar, tarbiyachi ko'rgazmali ko'rsatmasiz tushuntirishi mumkin. 5-6 yoshli bolalar uchun bir so'zning o'zi xotiradagi chizish usuli haqidagi tasavvurni eslashga yordam beradi. Tarbiyachining ko'rsatmalari butun guruh bolalariga va alohida bolalarga qaratilgan bo'lishi mumkin. Butun guruh uchun beriladigan ko'rsatmalar mashg'ulotning boshida beriladi. Ular qisqa, lo'nda, tushunarli bo'lishi kerak. O'rta va katta guruhlarda tarbiyachi bolalar topshiriqlarini qanday o'zlashtirganliklarini bilish uchun biror boladan topshiriqning ketma-ketligini va qaysi usullardan foydalanib bajarish kerakligini so'raydi. Bunday qayta so'rash yaxshi tushinishlariga yordam beradi.

Hamma bolalarga ham ko'rsatma berish zarur emas. Ko'rsatma ikkilanuvchan, uyalchang, o'ziga ishonmaydigan bolalarga kerakdir. Yuzaga keladigan qiyinchiliklarni tarbiyachi har doim ham oldindan aytib berishi kerak emas. Tarbiyachining ba'zi bir bolalarni berilgan topshiriqni o'zi mustaqil bajarishiga ko'zi yetsa, u holda tarbiyachi ko'rsatma berishdan bosh tortishi ham mumkin. Asosiysi, tasviriy faoliyatda bola qiyinchilikka duch kelib, uni bartaraf etishga yo'l topa olishi kerak. Ko'rsatma shakllari hamma bolalar uchun har xil bo'lishi kerak. Ayrim bolalarga maqtoqli ton bilan ko'rsatma berilsa, o'ziga ishongan bolalarga esa ko'prok talab qo'yiladi. Tarbiyachining ko'rsatmalari to'g'ridan-to'g'ri, buyruq shaklida bo'lishi kerak emas. U bolani o'ylashga, fikrlashga undashi kerak. Bola qilgan xatoni ko'rsatish bilan birga, tasvirning ma'nosi o'zgarayotganiga diqqatni qaratish lozim. Masalan: «Qizchanning ko'ylagi huddi g'ijimga o'xshaydi» (yaxshi bo'yalmagan), «Daraxtlar yiqilib ketayotganga o'xshaydi» (yaxshi joylashtirilmagan), «Bu odam biram katta, ammo uyga kira olmayapti» (rasmdagi proporsional holat). Shu bilan birga xatoni qanday qilib to'g'rilash kerakligini aytib bermaslik lozim. Bolaning o'zi fikr yuritsin. Ko'rsatma yoqimli tovush bilan berilishi bolalarning qiziqishini orttiradi. Yakka tartibdagi ko'rsatmalar boshqa bolalarning diqqatini jalb qilmasligi uchun pastroq tovushda, yakka holda beriladi. Mashg'ulot davomida qachon ko'rsatma beriladi? Qachonki, ko'pchilik bolalar xatoga yo'l qo'ysalar va tarbiyachi barcha bolalarning diqqatini o'ziga jalb qiladi va qaytadan tushuntiradi.




Bunday mashg'ulot davomida beriladigan ko'rsatmalarni kamroq berish kerak, chunki u bolalarni ijodiy faoliyatlarini izdan chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.R.Qodirova. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur 2019.
2. O.Hasanboyeva va boshq. Oila pedagogikasi. T.: "Aloqachi", 2007 y.
3. Shamsiddinovich M. A. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TO'G'RI TASHKIL ETISH OMILI SIFATIDA: Musayev Ashurali Shamsiddinovich, Yangi asr universiteti o'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 309-313.
4. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 146-149.
5. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 146-149.
6. Мусаев А. Ш. РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ МУҲИТИДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИ ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ //E Conference Zone. – 2022. – С. 125-128.
7. Мусаев А. Ш. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА КОМПЕТЕНТЛИ МУТАХАССИС ТАЙЁРЛАШДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИНГ ЎЗИГА ХОС ҲУСУСИЯТЛАРИ //E Conference Zone. – 2022. – С. 115-117.
8. Irisbayeva Y. Using " Cluster" Method //Eastern European Scientific Journal. – 2018. – №. 6.
9. Irisbayeva Y. Future Educators Professional Readiness to Interact with Preschool Children //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
10. Irisbayeva Y. PROFESSIONAL READINESS OF FUTURE EDUCATORS TO INTERACT WITH CHILDREN OF PRESCHOOL AGE //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 7.
11. O'tbosarovna I. Y. Improving the professional pedagogical preparation of students to interact with children's mechanisms //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – Т. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.





12. Yo I. MULOQOT JARAYONIDA BOLA SHAXSINI RIJOVLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 165-169.

13. O'tbosarovna I. Y. Pedagogical opportunities for improving the readiness of students to interact with children //Confrencea. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 268-270.

14. Ирисбаева Ё. У. ТЕОРИЯ ДЕТСКОЙ ИГРЫ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ //Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста. – 2023. – С. 26-32.

15. Ирисбаева Ё. У. СВЯЗНАЯ РЕЧЬ-ГЛАВНОЕ ДОСТИЖЕНИЕ В РЕЧЕВОМ РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 695-698.

